

MAVZU:

Aksariyat insonlar bolani 7 yoshda maktabga bergan ma’qul desalar, ayrimlar 5 yoki 6 yoshda maktabga borgan yaxshiroq deyishmoqda.

KIRISH

(Esse matnining mazmunini saqlab qolib, soʻzlarning sinonimlariga oʻzgartirgan holatda koʻchirish)

Ilm insonni kamolotga yetaklaydi. Shunday ekan, bilim olishda yoshning ahamiyati kattadir. Baʼzilar bolani 7 yoshidan ilm maskanlariga berishni lozim topishsa, qolganlar esa 5 va 6 yoshda ham maktabga bersa boʻladi deb hisoblashadi. Sizningcha, ushbu mulohazalarning qaysi biri toʻgʻri?

ASOSIY QISM**I**

(Mavzu yuzasidan birinchi tomon fikrini yoritish hamda dalillash)

“Beshikdan qabrgacha ilm izla”, deyiladi hadisi sharifda. Haqiqatdan ham, farzandga u tugʻilganidan boshlab yurish-turish, ovqatlanish, kiyinish, tozalik kabi tushunchalar kattalar tomonidan singdirib boriladi. Ammo maktabga borib taʼlim olish uchun boladan alohida tayyorgarlik talab etiladi. Shu sababdan koʻpchilik bolalarni 7 yoshdan maktabga berish kerak degan fikrni ilgari suradilar. Oʻzbekistonda bolalarning maktabga borish yoshi 7 yosh deb belgilangan. Bunga sabab, birinchidan, 5-6 yoshli bolalarning oʻqishi uchun yetarlicha sharoitlar yetishmaydi. Ikkinchidan, oʻzbek ekspertlari bola 7 yoshda jismoniy jihatdan ham, psixologik jihatdan ham yaxshi rivojlanadi deb hisoblaydilar. Bola bir joyda 45 daqiqa qimirlamay oʻtirishi uchun, ustozning koʻrsatmalarini qabul qilishi uchun bolalar 7 yoshdan maktabga borgan ma’qul deyishadi aksariyat insonlar. Respublikamizda 6 yoshdan bolalarni maktabga qabul qilish hozirda toʻxtatilganiga ham bu yoshdagi oʻquvchilarning oʻqish davomida qiyinchiliklarga duch kelishini sabab etib koʻrsatish mumkin.

II

(Mavzu yuzasidan ikkinchi tomon fikrini yoritish hamda dalillash)

“Ezgukning erta-kechi yo‘q”, deganlaridek, baʼzilar bolalarni 7 yoshdan emas, 6 yoshdan ham maktabga bersa boʻladi deb hisoblashadi. Ularning fikricha, birinchidan, bunday bolalar maktabni erta yakunlashadi. Ikkinchidan, rivojlangan davlatlar tajribasini bunga misol. Masalan, Xitoy, Kanada, Germaniya, Yaponiyada bolalar 6 yoshdan, Buyuk Britaniya, Avstarliya, Yangi Zelandiyalik bolalar esa 5 yoshdan ilm oʻchoqlariga qadam qoʻyishadi. Biroq bir narsaga ahamiyat berish lozim. Avvalo, bu mamlakatlarda maktabda shu yoshdagi oʻquvchilar oʻqishi uchun alohida sharoitlar yaratilgan. Masalan, tolibi ilmlar oʻzlari istagan shaklda taʼlim olishi mumkin, kundalik baholar qoʻyilmaydi, darsliklar ham bizdagidek emas. Shuning hisobiga maktablar 12 yil davom etadi. Tariximizga nazar tashlasak, buyuk bobolarimiz ham 4-5 yoshlaridan boshlab xat-savod chiqargan. Navoiy shu yoshida sheʼrlar yoza boshlagani bizga maʼlum.

III

(Mavjud vaziyat yuzasidan esse yozuvchining oʻz shaxsiy qarashlarini yoritish hamda dalillash)

Mening fikrimcha, bolani 7 yoshdan maktabga bergan maʼqul. Sababi shu yoshda bola har tomonlama ilm olish uchun rivojlangan boʻladi. Bu yoshdagi bolalar bilan ishlashda ustozlar ham, ota-onalar ham qiynalishmaydi. Statistika maʼlumotlarga koʻra, 85 foiz 7 yoshli bolalar mustaqil tarzda dars qilishadi.

XULOSA

(Yuqorida aytib oʻtilgan fikrlar yuzasidan umumiy xulosa berish)

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, farzandlarimizni davlat qonunlarida belgilangan yoshda ilm maskanlariga bersak toʻgʻri qaror qilgan boʻlamiz. Zero, kelajak avlod ilm olishdan bezib qolmasin, maktabga borish uchun intilsin.